



**MACHAY QISHLOG‘IDA OILA TARIXI VA GENEALOGIK  
MEROS AN‘ANALARINING TARIXIY-ETNOLOGIK TAHLILI**

**Shahboz Chorshanbiev**

Termiz davlat universiteti doktoranti

E-mail: [shahbozchorshanbiev3@gmail.com](mailto:shahbozchorshanbiev3@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolada muallif tarixiy-etnografik manbalar, etnografik materiallar asosida Hisor tog‘ tizmalari bag‘rida joylashgan Machay qishlog‘i aholisining genealogik an‘analari, urf-odatlar, marosimlari, etnik va hududiy o‘zliklari masalalari mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqot natijalari va muallifning dala materiallari asosida tahlil etgan.*

***Kalit so‘zlar.** Machay, oila-qarindosh guruhlari, avlod, oila-shajaralari, genealogiya, o‘zliklar, kasbiy o‘zlik, etnik o‘zlik, qishloq-mavzelari, machayilar, chig‘atoy.*

**HISTORICAL AND ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF FAMILY  
HISTORY AND GENEALOGICAL INHERITANCE TRADITIONS IN THE  
VILLAGE OF MACHAY**

**Chorshanbiev Shahboz**

Termiz State University

PhD student, Uzbekistan

E-mail: [shahbozchorshanbiev3@gmail.com](mailto:shahbozchorshanbiev3@gmail.com)

***Abstract.** In the article, the author analyzed the issues of genealogical traditions, customs, ceremonies, ethnic and territorial identity of the inhabitants of the village of Machai, located in the lap of the Hisar mountain range, based on historical and ethnographic sources, ethnographic materials, based on the available scientific literature, research results, and the author's field materials.*



**Keywords.** *Machai, family-relative groups, generation, family trees, genealogy, identities, professional identity, ethnic identity, rural areas, machais, chigatoy.*

**ИСТОРИКО-ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЕМЕЙНОЙ  
ИСТОРИИ И ГЕНЕАЛОГИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ НАСЛЕДОВАНИЯ В  
СЕЛЕ МАЧАЙ**

**Чоршанбиев Шахбоз**

Аспирант Термезского государственного университета

Эл. почта: [shahbozchorshanbiev3@gmail.com](mailto:shahbozchorshanbiev3@gmail.com)

**Аннотация.** *В статье автор анализирует вопросы генеалогических традиций, обычаев, обрядов, этнической и территориальной идентичности жителей села Мачай, расположенного в предгорьях Хисарского хребта, на основе историко-этнографических источников, этнографических материалов, а также имеющейся научной литературы, результатов исследований и полевых материалов автора.*

**Ключевые слова.** *Мачай, семейно-родственные группы, поколение, генеалогические древа, генеалогия, идентичности, профессиональная идентичность, этническая идентичность, сельская местность, мачаи, чигатой.*

Boysun tog‘ tizmalarida joylashgan Machayda Teshiktosh gori va undagi ibtidoiy odamlar jamoasi, ularning mehnat munosabatlari, tosh va boshqa qurollarning ishlab chiqarilganligi, olovning kashf etilganligi va undan turmushda keng foydalanganligi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Machay Teshiktosh o‘tmish tarixi fani uchun buyuk kashfiyot bo‘lgan edi. Taniqli arxeolog, antropolog olimlar A.P.Okladnikov, M.M.Gerasimovning vo‘ha bilan bog‘liq kashfiyotlari hamon soha



mutaxassislari va qiziquvchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Teshiktosh kamari, Amir Temir g‘ori, Machay g‘ori va boshqa hududlarda mashhur arxeolog va antropolog A.P. Okladnikov, M.M. Gerasimov, Surxondaryo okrug muzey direktori vazifasida ishlagan G.V. Parfyonov, mashhur olim S.K. Kabanov va boshqalar tadqiqotlaridan keyin 1971-yilda Machay g‘ori – Qo‘rg‘onda arxeologik tadqiqotlar olib borgan akademik O‘. Islomov eramizdan avvalgi ko‘p ming yilliklarda bu yerdagi hayot, insonning turmush tarzi va ongidagi o‘zgarishlar, yangi-yangi kasb-korlar, jumladan endi odamlar tog‘larda yashamasdan, balki daryo bo‘ylarida, tekisliklarda yashaganliklari, hayvonlarni xonakilashtirish, baliqchilik va boshqa kasblarini ham o‘zlashtirganliklari, qadimgi odamlar ong va turmushdagi o‘zgarishlar to‘g‘risida katta ilmiy xulosa chiqariladi. Antropolog T.T.Xo‘jaev va boshqa qator olimlar ham bu borada salmoqli ilmiy kashfiyotlarga erishdi. Xullas bu kashfiyotlar natijasi fanda “Machay madaniyati” nomi bilan mashhurdir. Machay haqidagi arxeologik va antropologik tadqiqotlarni hisobga olmaganda, yozma ma’lumotlarning kamligini boshqa sabablari ham bor. XVIII asr o‘rtalarda Boysun hududi Hisor, ba‘zan G‘uzor bekligiga bo‘ysungan edi, deyishadi tarixchi olimlar. 1868-yil oxirlarida Boysun shahrida bo‘lgan xalq qo‘zg‘alonidan keyin Boysun Buxoro amirligining mustaqil bekligiga aylandi”<sup>1</sup> deb yozadilar “Surxondaryo tarixi” kitobi mualliflari.

Rus tadqiqotchilari tomonidan Surxon vohasidagi barcha qishloq va shaharlar keng o‘rganilgan. Tadqiq qilingan asarlarda qishloq va shaharlarga boriladigan yo‘llar, aholisi, mashg‘ulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘qish

<sup>1</sup> С.Турсунов, Э.Қобилов, Б.Муртазоев, Т.Пардаев “Сурхондарё тарихи”, Т.: 2004 йил, Шарқ нашриёти, 7-бет.



mumkin. “Qizilnaur daryosidan yuqoriga Kichik O‘radaryo bo‘ylab Ko‘kqal’a davonigacha 29 verst va Ko‘kqal’a dovonidan Irgali daryosi va Kulsoygacha 6 verst, jami 28 verst va yo‘li juda yomon. Shundan so‘ng daryo bo‘ylab pastga Darband yo‘li orqali Machaygacha – 30 verst, jami Ko‘kkamar davonidan Machaydaryo qirg‘og‘igacha 36 verst bo‘lib, Turkondaryosi bo‘ylab yarim yo‘l o‘ng qirg‘oq bo‘ylab, yana yarim yo‘l dovon orqali chap qirg‘oq bo‘ylab o‘tiladi. Daryo orqali ko‘priklar mavjud, ba‘zan daryo bo‘ylab qishloqlar mavjud, ekin ekishga loyiq yerlarga arpa ekilgan. Machay yo‘li yuk ortilgan hayvon orqali harakatlanishga ancha qulay, ammo arava xarakatlanishi uchun ko‘priklar qurish va yo‘lni ancha tekkislash talab etiladi. Yo‘l bo‘ylab yem-xashak va o‘tin mo‘l-ko‘l. Machay orqali Darbandga ikki yo‘l — biri daryoning o‘ng, ikkinchisi chap qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tadi”<sup>2</sup>.

Machay to‘g‘risida yana bir muncha yozma manbalar ham borligini qayd etish kerak. Rus etnografi, tarixchi olim, geograf, O‘rta Osiyoda matbuot tashkil etilishi va uning taraqqiyotida munosib hissa qo‘shgan, “Turkestanskoe vedomosti” gazetasi tashkilotchisi va birinchi muharriri bulgan Nikolay Aleksandrovich Maev (1835-1896 yy.) o‘lkamiz tarixi, etnografiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi Buxoro amirligi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar beradi. Jumladan, rus amaldori A.A.Vaynbergga yozgan maktubida "...Amirning o‘g‘li Said Abdul Mo‘min tomonidan boshqarilayotgan Hisor bekligi hududlariga hozircha birorta yevropalikning oyog‘i yetmagan”<sup>3</sup>, — deb yozadi u. Bu Buxoro xonligi hududida rus ilmiy ekspeditsiyasini jo‘natishga

<sup>2</sup> Путьвые заметки классного топографа тит. Сов. Петрова 1884г.- С.76-77.

<sup>3</sup> УЗРМА фонди-1, опись 234, ТР-236, Л17.



tayyorgarlik jarayoni paytlari edi. 1870-yillarda Buxoro xukmdori Amir Muzaffar N.A.Maev boshliq ekspeditsiyaning Buxoro amirligi va ayniqsa, uning janubiy-sharqiy hududlariga faoliyat ko'rsatishi uchun rasman ruxsat beradi va tegishli shart-sharoit yaratadi. Ushbu ekspeditsiya Buxoro amirligi bo'ylab izlanishlar olib boradi. Surxondaryo viloyati hududidan o'tgan ekspeditsiya yurtimiz tarixiga doir qimmatli malumotlar to'playdi. Jumladan, Boysun bekligi to'g'risidagi bitiklari biz uchun qiziqarli. Ayniqsa, Boysun, To'da, Darband, Sayrob, Temir darvoza, Laylagon Sherobod va boshka hududlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar kayd etilgan.

Ekspeditsiya yakunlari to'g'risidagi hisobot yuzasidan "Buxoro xonligi ocherklari" asari yuzaga kelgan. 1879 yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan va Termiz o'lkashunoslik muzey direktori I.Botirov tomonidan o'zbekchalashtirilgan ushbu kitobda ham Machay nomi tilga olib o'tilgan.

Yuqori Machayda *Avlodi Yarash, Avlodi Bekmurot, Avlodi Niyozmuhammad, Avlodi Roziq, Avlodi Nurum, Avlodi Quvvat Avlodi Sohib, Avlodi Mo'min, Avlodi G'oz, Avlodi Beshbek* kabi genealogik guruhlar yashaydi. O'rta Machayda *Avlodi Allob, Avlodi Shag'ol, Avlodi Beshkal* degan avlodlar yashaydi. Pastgi Machayda *Avlodi Taboqtarosh, Avlodi Mulloyi* deb ataladigan aholi yashab kelmoqda.

Roziq avlodlari Mulla Roziq oxun ajdod va avlodlaridan o'qimishli, taniqli kishilar ko'p bo'lgan. Roziq avlodlarini "mulloyi" ham deb atashadi. Aftidan bu so'z mullo, o'qimishli ma'nolarida qo'llanilgan bo'lishi mumkin. Aytishlaricha, mulla Roziqning bobokalonlari Shahrizabzda, Oqsaroy atroflarida yashagan.



Avlodi Sohib; Bu avlod bosh bo'g'inida 3 nafar o'g'il turibdi. Ular *Qurbonnazar, Bobonazar, Eshnazar*. Qurbonnazar o'g'illari ko'p bo'lgan. Ular quyidagilar. Rahmonqul, Yaxshiboy, Ibod, Sariboy, Shayna. Sohib urug'ining Qurbonnazar shoxi Rahmonqul shaxobchasidan tarqalgan avlodlar bugungi kunda ko'pchilikdir. Rahmonqulboyning Mamatqul, Yoqub, Turdiboy ismli farzandlari bo'lgan. Rahmonqulboyning o'g'li Mamatqulboyning zurriyodlari To'ychiboy ismli o'g'li, Anor ismli qizi bo'lgan. To'ychiboy Machay qishlog'ida yashaydi. U serfarzand oila bo'lib, avlodlari hamisha el xizmatida. Anor Muzrabod tumanida Chori Safarqul o'g'li bilan turmush qurgan. Yoqubboyning Fotima-Zuhra, Xadicha ismli qizlari bor. Xadicha Nurum avlodiga mansub Abdulla Bekpo'lat o'g'li bilan turmush qurgan. Ularning farzandlari, nabiralari bor.

Avlodi Yarash haqida. Avaz qoraqosh nomi kuragi yerga tegmagan polvon va mohir chovandoz sifatida Buxoro amirligi va Movarounnahrda mashhur bo'lgan. Uning o'g'li Yarash ham nomdor, katta yer-suvi, moli, xizmatkorlari bo'lgan. Uning avlodlari Yakkabog' tumanining Guldara qishlog'ida yashashgan<sup>4</sup>.

Machayda yashaydigan aholi ikkita yirik shoxga bo'linadi *Obixshoni* va *Mulloyi* machayilarning ajdodlari, o'z ota-bobolari qaerdan kelishganliklari to'g'risida turli xil fikrlar borligini yukorida ta'kidlagan edik. Bu haqidagi hakikatni bilish har birimiz uchun qizikarli shubhasiz. Chindan ham ular bu go'shaga qachon, qanday qilib, nima maqsadda kelib qolishgan. Yoki ayrim axborotchilarning fikricha Hindiston, Pokiston, Afg'onistondan ko'chib keltirilgan"mi? Machayilarning ko'pchiligi ota-bobolari bu yerga ming yillardan

<sup>4</sup> Дала материаллари. Маҳмадкаримов Тўхтамиш бобо. 76 ёш..Мачай қишлоғи.



buyon, ayrimlari 500-600 yillar chamasi shu yerda yashayotgan bo'lishsa kerak, degan fikr bildiradilar. Katta yoshlilar 7-8 avlod shajarasini qiynalmay eslaydi, yoshlar esa buni yaxshi bilishmaydi. Avlod so'zi bu yerda pusht so'zi bilan ma'nodosh qo'llaniladi.

Mashxur olim M.Eshniyozov tadqiqotlarida janubiy O'zbekiston va Tojikistondagi elatlar, ularning urf-odatlarini, ayniqsa til xususiyatlari, shevalari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Elshunos olim B.X.Karmisheva ham mavzu yuzasidan uzok yil kuzatishlar olib boradi. "Sheroboddaryo havzasida, ayniqsa, Machaydaryo, Kichik O'radaryo va Katta O'radaryo bo'ylarida yashovchi turklar Surxondaryo bo'ylaridan kelganliklarini ta'kidlaydilar. Ular 7-8 avloddan yuqorisini bilishmaydilar. Bu turklar tojik xardurilari bilan (ayniqsa Machayliklar bilan) jiddiy qorishib ketganlar. Quda-andachilik, turmush tarzidagi o'xshashliklar tufayli ularni ajratish juda kiyin. Fakatgina ularning farqi o'z til xususiyatlarini saqlab qolganliklaridir. O'z o'tmishda esa bu ikki xalk ham bir xildagi turmush tarziga ega bo'lganlar: ko'chmanchilik, dehqonchilik, ayniqsa g'alla yetishtirish, chorvachilikning kichik shoxli mollar – qo'y-echkichilik bilan shug'ullanganlar".

Taniqli etnograf B.X.Karmishevaning yana qator izlanishlarida Machay va machayilar etnografiyasi bilan bog'lik bir qator fikrlar kayd etilgan. Bir qarashda machayilarning Boshchorbog' hardurilari va turklari bilan, boshqa holatda chig'atoylar bilan bog'laydi. Hardurilarning Boshchorbog' va Machay hududlariga kelib qolishlarini To'palangdaryoning o'ng irmog'idagi Malyand daryosi bo'ylaridagi Xardurisoy yoki Harduri qishlog'i bilan, turklar va machayilarning kelishini esa Halqayor va Sangardakdaryo yuqori oqimlaridagi turk va harduri qishloqlari, ayniqsa Dahana qishlog'i bilan bog'lovchi etnografik ma'lumotlarni



kayd etadi, Sariqbiy avlodlari to'g'risidagi shajarani 1954 yilda yozib olgan, Boshchorbog' hardurilari va turklari hamda machayilarning hududga kelish tarixi XIX asr oxiriga to'g'ri keladi va etnogenezi bir degan xulosa chiqaradi. Ushbu etnografik manbalar qimmatli bo'lsada, bu fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki Machay haqidagi ma'lumotlarimiz buni rad etadi. Qolaversa machayilarning bu yerda muqim yashab qolishi XIX asrning ikkinchi yarmidan keyinga to'g'ri keladi. Amir Nasrullo va Amir Muzaffar hukmronlik yillaridagi o'zaro urush va nizolar, bu siyosatga qarshi xalq norozilik harakati Shahrizabz, Yakkabog', Hisor va boshqa beklarning bo'ysunmaslik, mustaqillik, ozodlik uchun olib borgan kurashlari, xususan amir Muzaffarning Chor Rossiyasi bilan tuzgan separat sulh shartnomasiga nisbatan norozilik va kurash, bu kurashda asosan kenagas va barloslar, loqaylar yetakchi kuch bo'lganligi sabab bo'lgan. Chor Rossiyasi yordamida Shahrizabz, Kitob, Yakkabog' beklari qarshiligini, ozodlik harakatini qonga belagan amir hokimiyati jabrida ko'plab urug'lar olis-olislarga, tinch hududlarga ketishga majbur bo'lishgan, ko'plab urug' va isyon yetakchilaridan qasos olingan.

Hardurilar bilan machayilarning turmush tarzi yagona, yahlid hududi, din va urf-odatlari bir xilligi ularning yanada jiplashuvi, biri-biriga singib ketishiga olib kelgan. Bunday yaqinlik zamirida eng avvalo quda-andachilik aloqalari muhim o'rin tutgan. Machayilar bilan Boshchorbog' turklari va tojiklari orasida bunday ildiz olis-olislarga borib taqaladi. Hattoki til tafovuti bunga monelik qilmagan, Machay va Boshchorbog' aholisining keyingi yillardagi tarixi, tarkibi chuqur o'rganilsa bunday aloqa-aralashuvlar nechog'lik teran ildizga egaligi, bu xalklar "tog'a-jiyan" qon-qardoshligiga ishonch hosil qilinadi. Darband, Qizilnavr, SJIF:5.219



Kentala, Qizilmazor, Xo'jadiyak qishloqlari aholisi to'g'risida ham shunday deyish mumkin.

Machayning tub aholisini hardurilar bilan bunday bog'lanib ketishida XIX asrning ikkinchi yarmi siyosiy voqealari ham asosiy sabablardan hisoblangan. Boysun beklari va uning avlod-ajdodlari Boshchorbog' tojiklari, turklari, machayilar bilan qat'iy bog'langan. Boysun beklarining bir necha avlodi Boshchorbog'dan uylangan. Jo'ra qo'shbegining qondoshi, Machaydagi eng nufuzli urug' boshilardan biri, amakisi bo'lgan, amakasini To'raqul amin, mullo Yo'ldosh-allob taxallusi bilan mashhur bo'lgan sulola boshlig'i bekka tog'a, mulla Chinni nomi bilan o'z zamonasida mashhur bo'lgan katta va nufuzli sulola vakilasi Jo'ra qo'shbegiga amin hisoblanganligi haqida ma'lumotlar bor. Bekning singlisi, qizlari Machayga kelin bo'lgan.

Muzrabod tuman "Qahramon" mahallasida yashovchi, elu-xalqning sevimli ustozi Umir Abdullaev Jo'ra qushbegining yaqin qarindoshi bo'lgan. Ko'pchilik Machaylarning bobokaloni kenegas-barlos bo'lsa ham keyingi ikki yuz yillik tarix jarayonidagi o'zgarishlar bunday qadimiy etnik tuzilishga jiddiy tuzatishlar yasagani tayin. Buni ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Machaydagi qator sulolalar ham Boshchorbog' hardurilari, turklari va tojiklari, Xo'jadiyak, Darband, Kentala, Qizilnavr va boshka qishloq vakillari bilan qon-qardosh, quda-anda, qorishib ketgan. Bir avlod yashash davri uchun 20 yil taxminiy hisob uchun yoki bundan nari beri miqdor mezon kilib olinsa, 8 avlod umri chiqadi. Bu hisobni o'rtacha 160 yil deb hisoblasak, XIX asrning 50-yillariga borib taqaladi.

Machay tarixi bilimdoni S. Amonturdievning katta bobosi Quvvatboyning hech qanday yozma manbaalarda qayd etilgan tarjimai holi, hujjatlari saqlanmagan



bo'lsa-da, Quvvatboy 30-40 yoshlarida Machayga ko'chib kelgan, u kishi 1810 yilda tug'ilgan deb tahlil qiladi, axborotchimiz. Axborotchiga ko'ra o'g'illari Qulmatboy 1830 yil, nabiralari Mengliqulboy 1850 yil, bobosi Amonturdiboy 1870 yilda tug'ilganlar, deya taxminiy hisob-kitob qilinsa, uning otasi Jo'ranazarboy 1920 yilda tug'il bo'ladi. Axborotchimizning 8 ta ajdodlari shajarasi vakillari tug'ilgan davrlarini 2013-1993-1973-1951-1933-1913-1893-1873-1853-yillar bilan ko'rsatgan. Demak, 160 yilda 8 ta avlod vakillari yashagan bo'lsa, taxminan 1853 yillarda axborotchimizning bobolari Machay hududlariga ko'chib kelgan davrlari aniq bo'ladi.

Quvvatboy yirik yer egasi, kapa yer-suvi, yaylovi, minglab qo'yi bo'lgan. Bunday kapa boy, nufuzli odamning ko'plab xizmatkorlari bilan Machayga kelib yashay boshlashi va muqim yashab qolishini jiddiy sabablari borgan o'xshaydi. Quvvatboyning ota-bobosi Qashkadaryo vohasining Yakkabog' tumaniga karashli hududlarda yashagan. Hisor tog' tizmalari, To'la, O'g'un qishloqlaridan Xonaqadaryoning yuqori qismida joylashgan Xonaqo, Toshbuloq, Obishson, Qoratog'daryo bo'ylaridagi Xokim qishloqlaridan Toshqo'rgongacha bo'lgan katta hududlarda dehqonchilik chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan<sup>5</sup> - deb eslaydi axborotchimiz S. Amonturdiyev.

Machaylarning ko'pchilik sulolasi, bobokalonlari Dehqonobod tumanining Nurqay, Boshchorbog', Duob, Obixshon, Yakkabog'ning Guldara (Go'rdara, deb atashganlar), O'g'in, To'la, Edilbek, Qizil mozor qishloqlaridan, Kitob va

<sup>5</sup> Amonturdiyev С. Мачай тарихи Т., 2016 йил.



Shaxrisabz, Boysunning qishloq va ovularidan ko'chib kelishganliklarini ta'kidlashadilar.

Machayliklar Boysun beklari avlod-ajdodlari bilan yaqin qon-qardosh, karindosh bo'lishgan, – deydi Boysun begi bo'lgan Jo'ra qo'shbegining nevarasi Jo'raev Alimardon hoji Xolnazar o'g'li.

Avlodi quvvat urug'ining kelib chiqishi kenegas-barlos urug'iga mansub Quvvat machaylarning bosh urug'laridan biridir. U XIX asrning 50- yillarida bu yerga hozirgi Yakkabog' tumanidan ko'chib kelgan. Quvvat yirik yer egasi bo'lib, uning katta yaylovi, sug'oriladigan yeri, bir necha ming ko'yi, o'nlab xizmatkorlari bo'lgan. Ayniqsa zotdor otlari, 25 dan ko'proq biyasi bo'lgani, buning hammasi uning badavlat, o'ziga to'q oilalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Quvvatboyning bu yerga ko'chib kelishi va muqim yashab qolishining sabablari bo'lgan. Eng avvalo Buxoro amirligidagi boshboshdoqliklar oqibatida Yakkabog' va Kitob, Shaxrisabz beklari mustaqillik, ozodlik uchun qattik kurash olib borganlar. Amirning beklardagi bo'ysunmaslik, ozodlik va mustaqillik uchun kurashni bostirish uchun olib borgan uzoq muddatli harbiy yurishlari oqibatida ko'plab qishloqlar xonavayron bo'lgan, xalq aziyat chekkan. Tarixdan ma'lumki, XIX asrning birinchi-ikkinchi choraklarida Buxoro Amirligi Shaxrisabz, Kitob, Yakkabog' beklariga qarshi 32 marta qo'shin tortgan va o'zaro urushlar tufayli behisob qurbonlar berilgan.

Ota-bobosi va ko'plab ajdodlari Amir Temur davlati shon-shuhrati va qudrati uchun kurashib kelgan Quvvatboy ham Yakkabog' Shaxrisabz va Kitob beklarining mustaqillik uchun kurashini uzoq vaqt qo'llab-quvvatlaganlardan bo'lgan. O'z navbatida bu beklar ham bunday kishilarga katta yer-suv berish, SJIF:5.219



o'tloqlar va yaylovlar, ayniqsa sug'oriladigan yerlarni olishlari va mol-mulki himoyasi uchun g'amxo'rlik qilib kelganlar. Jumladan, Quvvatboy Machaydaryo hududidan o'nlab gektar sug'oriladigan, minglab gektar lalmikor ekin ekiladigan joylar, ko'plab eng sero't yaylovlarni egallagan. Shu sababli ham Quvvatboy Machayda muqim yashab qolgan. Yakkabog' va Shahrizabz, Kitobdan ancha olis, yangi manzilga o'rganish, muqim yashab qolish Quvvatboy uchun oson kechmagan. O'zi tug'ilib o'sgan yerni, do'st-yorlar, qarindosh-urug'larni sog'inish, qumsash tuyg'ulari unga doimiy azob berib kelgan. Shu tufayli ham u yaratgan termalar el-xalq orasida sevib aytilgan. Termalarida sog'inch va Vatanga muhabbat tuyg'ulari aks etgan. O'sha davrdagi ziddiyatli va og'ir siyosiy voqealar ham Quvvatboyning bu yerda muqim yashab qolishiga sabab bo'lgan. Qolaversa Machay kabi sersuv, sero't, tabiati so'lim, qishi mo'tadil bu go'sha unga yoqib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, Machay qishlog'ida yashayotgan aholi ikkita yirik shoxga bo'linadi Mulloyi va Obixshoni. Mulloyilar Shaxrisabz, Kitob va Yakkabog'dan kelganligi hamda bu yerda muqim yashab qolishi taxminan XIX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Obixshoni machayilar esa, Machay hududlariga XVIII asrda Halqayor va Sangardakdaryoning yuqori oqimlaridagi turk va harduri qishlog'idan kelgan. Machayda saqlanib qolgan bu kabi oila-urug' shajaralari turli genealogik (Obixshoni va Mulloyi) pirovard natijada hududiy (machayi, boysuni, tog'chi) etnik (chig'atoy, o'zbek) o'zliklarini uzoq tarixiy davrlar mobaynida saqlanib qolishi omili bo'lgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunga qadar saqlanib qolgan oila-urug' birlashmalari, shajaraga oid an'analar machayilar o'rtasida kasbiy o'zliklarining o'ziga xosligini ta'minlab bergan.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Бакр Муҳаммад иби Наршахий. Бухоро тарихи, Т., 1966.
2. Мир Муҳамед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент, 1957.
- 3.Маев Н.А. Бухоро хонлиги очерклари. Т., "Фан ва технологиялар" , 2012-йил.
- 4.Путевые заметки классного топографа тит.сов. Петрова 1884 йил.
5. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Тадж. и Узб, М., 1976 г.
6. Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией. - М.Наука, 1979.
- 7..Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати, Т., 1888.
8. "Навоий асарлари луғати" (Тузувчи П.Шамсиев) Т., 1972.
9. Турсунов С., Қобилов Э., Муртазаев Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарихи, Т., 2004 йил.
10. Турсунов С., Қобилов Э.. Сурхондарё тарих кўзгусида, Т., 2001 йил.
12. Турсунов С.. Сурхондарё вилояти топонимлари, Т, "Медианаشر".
13. Амонтурдиев С. Мачай тарихи Т., 2016 йил.
14. Турсунов С., Турдиев Т.. Денов, Т, 2008 йил.
15. Турсунов С., Рашидов К. Бойсун, Т., 2011 йил.
16. Равшанов П., Ўроқов Р. Аждодларимиз кадри, Т. "Шарк" 1999 йил.
17. Гаффор Норбоев. Бойсун ҳардуриларининг шажараси. Т. 2007 - йил.



18. Ҳасан Мади Тўраназаров. "Элбегилар", Тошкент. 2011 йил.
19. Қаямов А. Шеробод воҳаси аҳолисининг этник таркиби//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1998. №3.